

**JALOLIDDIN MANGUBERDI TARIXINI XOLISONA YORITISHDAGI
MUAMMOLAR XUSUSIDA (QUDRAT MASHARIPOVNING "JALOLIDDIN
MANGUBERDINING JAHON SIYOSIY VA HARBIY TARIXIDAGI O'RNI"
MONOGRAFIYASI ASOSIDA)**

Mo'minov Xikmatilo Chari o'g'li

*Termiz davlat pedagogika instituti tarix fakulteti tarix va uni o'qitish
metodikasi ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Qudratov Namoz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alouddin Muhammad va Oychechak Xotun o'g'li, so'nggi Xorazmshoh, millat qahramoni Sulton Jaloliddin Manguberdi tarixini ilmiy xolisona yoritishdagi muammolar, sabablar, yechimlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *jaloliddinshunoslik, Ziyo Buniyodov, Bartold, gurji manbalari, Washington Post, Plano Karpini, Oydin Tonariy, Komil Matyoqubov, Qudrat Masharipov*

Istiqlol sharofati bilan xalqimiz o'z milliy qahramonlarini taniy boshladi. Bu milliy qahramonlar Vatan ozodligi yo'lida jonlari fido qilishdan ham qo'rqishmagan. Ular uchun bu Vatan tuprog'i muqaddas bo'lib, uni yot kimsalardan asrab avaylash uchun kurashishgan.

Mana shunday Vatan qahramonlaridan biri Sulton Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. Sulton Jaloliddin Manguberdi haqida xolisona yoritilgan asarlar juda oz.

Rossiya, Kavkazorti, Yevropa tarixchilar Jaloliddinni bosqinchil deb bilishadi. Va hattoki, mo'g'ullardan ko'proq vayronagarchilik qilgan deb bilishadi.

Xo'sh, bunga sabab nima bo'lishi mumkin?

Biz Jaloliddinni qahramon deb turganimizda boshqa xalqlar uni bosqinchil deb tursa, bunday turli yondashuvlar qanday kelib chiqqan yoki chiqadi?

Manbashunoslik va tarixshunoslik ma'lumotlariga tayangan holda, bu savollarga birma-bir javob berib, o'zi fikrimizni bildirib o'tamiz. Shuningdek, fanda "Jaloliddinshunoslik" yo'nalishi qanchalik ahamiyatli ekanligi, bugungi kunda dunyo hamjamiyatida Jaloliddin va Chingizzonga bo'lgan munosabat qanday ekanligi to'g'risida ham fikr yuritamiz.

Birinchidan, Sulton Jaloliddinni bosqinchil deb talqin qiladigan tarixchilar bu yondashuvlariga asos sifatida akademiklar Ziyo Buniyodov va Bartold tadqiqotlarini ko'rsatishadi.

Ammo bu borada tadqiqotchi olim Qudrat Masharipov ning fikrlari e'tiborga molikdir.

"To'g'ri, bu tadqiqotchilar Xorazmshohlar-anushteginiyalar davri tarixini va xususan Jaloliddin Manguberdi faoliyati tarixini o'rganish ishiga juda katta hissa qo'shganligini inkor qilmaymiz. Ammo ularning bu boradagi zalvorli mehnatlarini hurmat qilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, bu eski qolipdagi qarashlardan chiqish vaqtি allaqachonlar yetib keldi".

Haqiqatdan ham e'tibor bersak, har ikkala olim ham sovet davrida yashab o'tishgan va o'z davrining mafkurasiga mos ish tutishganligi tabiiydir. Shu ma'noda har ikkala olimning asarlaridan ehtiyyotkorlik bilan bo'lsa-da foydalanish lozimdir.

Ikkinchidan, har bir xalq, davlat uchun eng muhim qadriyat bu mustaqillik hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdini bosqinchi deb hisoblaydigan Kavkazorti xalqlari bo'lsa, bunga qaysidir ma'noda asos ko'rsatishadi, ammo Jaloliddining o'sha hududlarni egallash jarayonlarini bo'rttirib tasvirlashlarini qanday tushunish mumkin. Gurji manbalarida Jaloliddin Manguberdining yurishlari ularning Xudo oldidagi gunohlari uchun bir jazo bo'lganini ta'kidlaydi. Ammo shu bilan birga Jaloliddinni mo'g'ul bosqinidan himoya qiluvchi devor bo'lganini tan oladilar.

Shunday bo'lsa-da, Jaloliddinni bosqinchi deb hisoblashiga sabab, meni fikrimcha o'sha xalqlarning Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, yurtga tashqaridan kim nima maqsadda kelishidan qat'iy nazar davlatni ajnabiy lar qo'liga topshirib qo'ymaslik, o'z Vataniga o'zi ega chiqish kabi tushunchalarni mustahkamlash uchun shunday qilsa kerak.

Uchinchidan, Jaloliddinni musulmon tarixchilar ham, G'arb tarixchilar ham bosqinchi deb aytsalar-da, bunday fikrlashlariga turli sabab va bahonalari bo'lsa-da, ko'p o'rnlarda o'zlarini Jaloliddinni buyuk shaxs ekanligini tan olib qo'yishadi. Bu xuddi o'zbek xalq maqolidagi "oyni etagi bilan yopib bo'lmaydi" so'zlariga mos tushadi. Yevropa sayyohi Plano Karpini (1253-1255-yillar sayohat qilgan) Jaloliddinni "ulug" deb ta'rif bergan, Vaholanki, P. Karpini Jaloliddin haqida faqatgina mo'g'ullardan eshitgan ma'lumotlari asosida fikr bildirgan.

Mana shu kabi fandagi turli savollar alohida yo'nalish "Jaloliddinshunoslik"ning rivojlanishi rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

"Syrat as-Sulton Jalol ad-Din Mengburni" asari tarjimoni Komil Matyoqubov tarix fanining jaloliddinshunoslik yo'nalishi allaqachon shakllanib bo'lganini ta'kidlaydi.

Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi kurashishda, o'sha davr mafkurasiga ko'ra butun qo'shini bilan g'azot(haq din uchun kurash, jihad) ga chiqishgan. Demakki askarlarni ruhiy holati bo'yicha muammo bo'lishi mumkin emas. Eng katta xavf

bu Jaloliddinga o'zining musulmon hukmdorlarining hasad qilishi va qurok ko'tarishidir. Mo'g'ullarga emas, Jaloliddinga qarshi ittifoq bo'lishlaridir. Jaloliddinshunoslik ning eng o'rganilish lozim bo'lgan qismi ham shu bo'lsa kerak. Chunki bu masala hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatiga oid ko'plab asarlar yozilgan bo'lsa-da, bu asarlarning aksariyati uning harbiy kuchi va harbiy san'ati deyarli hech qanday chuqur ilmiy tahlil qilmaydi. Tan olish kerak, akademik Ziyo Buniyodov va turk tadqiqotchisi Oydin Tonariy bu mavzu yuzasidan ma'lumotlar keltirib o'tgan, ammo chuqur ilmiy tahlil qilinmagan. Hozirgi kunda ham olimlar orasida shu ikki olimning fikrlari hukmron qarash bo'lib kelmoqda.

Jaloliddinning raqibi Chingizzon haqida esa bunday deb bo'lmaydi. Rus harbiy sarkardalaridan biri Mixail Ivanin Chingizzon va Amir Temur harbiy kuchi va harbiy san'atini qiyosiy tahlil qilib, "Ikki buyuk sarkarda" asarida ma'lumot berib o'tgan.

Sulton Jaloliddin o'rta asrlardagi buyuk lashkarboshilar Chingizzon, Richard Sheryurak, Salohiddin Ayyubiy kabi yuzta buyuk lashkarboshilar qatorida turadi.

Jaloliddinning raqibi bu faqat Jaloliddinning raqibi emasdi. Chingizzon masalasida bugungi kunda qarashlar bizni ajablantirmoqda. Birinchi Renessansni tugallanishiga asosiy sababchi bo'lgan shaxs bugungi kunda dunyo hamjamiyatida ideallashtirilmoqda.

1995-yil Washington Post gazetasi Chingizzonni ikkinchi mingyllikning eng buyuk kishisi deb e'lon qildi.

Vaholanki, insoniyat tamadduni taraqqiyoti rivojlanishiga qancha ziyon yetganiga e'tiborga olishmayotgan bo'lsa.

Qudrat Masharipov bu masalaga tushuntirish arablar bosqini va mo'g'ullar bosqinini qisqagina qiyosiy tahlil qiladi.

"Tan olish kerakki, arab bosqinidan keyin haqiqatdan ham ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlanishi yuz bergani holda, mo'g'ul bosqinidan keyin bu darajadagi madaniy yuksalish ro'y bermadi. Markaziy Osiyoda ro'y bergen XIV-XV asrlarni o'z ichiga oluvchi ikkinchi Uyg'onish davri ham Amir Temurning O'rta Osiyoni mo'g'ullar zulmidan ozod etgandan keyingina ro'y berdi".

Yuqorida bir qancha tarixshunoslik va manbashunoslik ma'lumotlariga tayangan holda, asosan Qudrat Masharipovning "Jaloliddin Manguberdi jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni" nomli monografiyasiga foydalangan maqola avvalida yozilgan savollarga javob berishga harakat qildik.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Jaloliddin Manguberdi dunyo ilmiy hamjamiyatida o'rganilishi lozim bo'lgan xalqaro jihatdan ahamiyatli bo'lgan,

yaxshi o'rganilsa bugungi kunda paydo bo'lgan savollarga javob bera oladigan mavzudir.

So'nggi yillarda jadallahib borayotgan turkiy integratsiya jarayonlarida turkiy xalqlarning umumiy tarixini yozish dolzarb mavzudir. Agar shunday qilinsa, eng mashhur turkiy musulmon davlatlardan biri Anushtegin Xorazmshohlar sultanatining so'nggi sultonı Jaloliddin Manguberdi haqida ham umumiy pozitsiyasi shakllanadi. Bu 1 davlatning emas, 6 mustaqil davlatning, 6 mustaqil davlat olimlarining pozitsiyasi bo'ladi. Bu esa buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdi haqida noxolis ilmiy qarashlarni barham topishi yo'lida tashlangan juda katta qadam bo'ladi degan umiddaman.

O'zbekistonda "Imom al-Buxoriy", "Imom Termizi", "Imom Moturidiy" nomidagi ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat olib bormoqda. Bu buyuk olimlar nomidagi ilmiy markazlarni bo'lishini olqishlaymiz albatta.

Lekin shu bilan birga, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shayboniyxon kabi buyuk sarkardalarimiz faoliyatini chuqur ilmiy tahlil qiladigan mustaqil xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari ham tashkil etilsa, ularning hayoti va faoliyati, harbiy kuchi va harbiy san'atini, jahon siyosiy tarixidagif o'rnnini xolis va haqqoni yoritib berishga xizmat qilishi kerak. Shundagina buyuk sarkardalar, siyosatchilar(xon, xoqon, sulton, amir, vazir va boshqalar) tarixini yoritishdagi muammolar barham topishi mumkin

Va bu yo'lida kamina ham endigi tadqiqotlarida alohida urg'u beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni.(Komil Matyoqubov tarjimasi). Toshkent "O'zbekiston" 2006.
2. Путешествия в восточные страны, Плана Карпини и Гильом де Рубрук, - Алматы, "Илым", 1993,-242 стр.
- 3.Анонимный гуржиский "Хронограф" XIV века / Пер.: Г. В. Цулая. - М., 2005
- 4.Qudrat Masharipov , Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni.
- 5.<https://www.washingtonpost.com/archive/opinions/1996/01/13/man-of-the-millennium-and-other-milestones/07357bca-d10a-46d4-a9d1-44ef22a3fa50/>
7. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).
8. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS

AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.

9. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.

10. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30

11. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.